

OLIY TA'LIM TALABALARIGA "TADBIRKORLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH" FANINI O'QITISHDA JORIY AKTIVLAR – TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING O'RNI.

I. M. Xidirov

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abstrakt

Maqolada kishilarda tadbirkorlik ko'nikmasini rivojlantirishda joriy aktivlar, xossatan tovar-moddiy zaxiralarining o'rni, o'quvchilarning iqtisodiy madaniyatini yuksaltirishning asosiy vazifalari yoritilib, o'quvchilarning iqtisodiy bilimini yuksaltirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: joriy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralari, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr xarajatlari kechiktirilgan xarajatlar, hisobotga olish davri.

Kirish

Maqolada oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalariga "Tadbirkorlik ko'nikmasini rivojlantirish" fanini o'qitishda joriy aktivlar, ya'ni tovar-moddiy zaxiralari va ularni halq xo'jaligidagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanadi. Suningdek, o'quvchilarga iqtisodiyotni, iqtisodiy munosabatlarni tushunishlariga yordam beradi.

Muhokama va tahlillar. Oliy ta'lim talabalariga "Tadbirkorlik ko'nikmasini rivojlantirish" fanini o'qitishda Joriy aktivlar – Tovar-moddiy zaxiralarini o'qitish muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiyotda tovar-moddiy zaxiralarining tarkibi quyidagilardan:

- Ishlab chiqarish zaxiralari
- Tugallanmagan ishlab chiqarish
- Tayyor mahsulot
- Tovarlar
- Kelgusi davr xarajatlari
- Kechiktirilgan xarajatlardan iborat.

Ishlab chiqarish zaxiralari - korxonadagi hali ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilmagan va ish o'rniga yetib kelmagan aylanma vositalarining bir qismi: Ishlab chiqarish zaxiralari xom ashyo, asosiy va qo'shimcha materiallar, yoqilg'i, sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar, detallar, ehtiyot qismlar, asboblari va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish zaxiralari ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz kechishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda ularning ortiqcha bo'lishi (Ishlab chiqarishga zarur bo'lmagan

zaxiralar)ga ham yo‘l qo‘ymaslik zarur. Ishlab chiqarish zaxiralari natural ko‘rsatkichlar (og‘irlik, hajm, dona, o‘lcham,)da aniqlanadi. Uning hajmi korxonada muayyan davr (kun, oy, kvartal, yil) uchun belgilanadi.

Vazifasiga ko‘ra, Ishlab chiqarish zaxiralari joriy zaxiralar, kafolatli zaxiralar va tayyorgarlik zaxiralarga bo‘linadi. Joriy zaxiralar har kuni muayyan maqsulot birligini ishlab chiqarish uchun ombordan (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib beruvchidan) yetkazib beriladi. Kafolatli zaxiralardan, asosan, joriy zaxiralar tugab, navbatdagi Ishlab chiqarish zaxiralarini yetkazib berish to‘xtab qolganda ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Uning darajasi shoshilinch berilgan buyurtmani bajarishga ketgan vaqt va o‘tgan davrda yetkazib berilgan Ishlab chiqarish zaxiralari bilan kelgusida yetkaziladigan zaxiralar orasidagi tafovut bilan belgilanadi. Bunda zaxiralarni yetkazib berish masofasi, ularning ishonchliligi, materiallarni tashib berish harakteri va usuli, ularni yaqin joylashgan bazalardan olish imkoniyatlari va boshqalar hisobga olinadi. Kafolatli zaxirani yaratish uchun zarur zaxiralarni har besh kunda yetkazib berishga erishish, shu bilan bir qatorda moddiy-texnika ta‘minotini kengaytirish kerak bo‘ladi. Tayyorgarlik zaxiralari yetkazib berilgan zaxirani qabul qilib olish, ularni sifatini tekshirish, saralash, joylash, korxonaning sexlariga yetkazib berish va boshqalarni talab qiladi. Odatda, joriy, kafolatli va tayyorgarlik zaxiralari birgalikda ombor zaxirasini hosil qiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning boshi va oxirida vujudga keladigan vaqtinchalik (bunda zaxira faqat qisqa muddatga yuzaga keladi) zaxiralar bor. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mavsumiy zaxiralar hosil qilinadi. Ularning hajmi mavsumiy tanaffuslarning uzunligiga bog‘liq.

Zaxiralarni haddan tashqari oshirib yubormaslik, ularni ishlab chiqarish harakteri va hajmiga qarab, me‘yor darajasida yaratish zarur. Umuman zaxiralar ma‘lum darajada mablag‘larni band qilib, ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiruvchi omil hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – korxonaning turli sexlarida ishlab chiqarish jaroyonida bo‘lgan, lekin hali (hisobotga olish davrida) ishlab chiqarishi yakunlanmagan mahsulot.

Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, texnologik jarayonda ko‘zda tutilgan hamma ishlab chiqarish bosqichini o‘tmagan, texnika nazorati tomonidan tekshirib qabul qilinmagan buyum va mahsulotlarga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, 100%lik tayyor mahsulot darajasiga kelmagan, tayyor mahsulot tariqasida ko‘rilmaydigan, bundan kelib chiqib, xaridorga sotib bo‘lmaydigan mahsulot qismiga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini va uni tayyor mahsulot darajasiga qanchalik yaqinligini aniqlash buxgalteriya hisobi uchun juda muhimdir. Bu turdagi ishlab chiqarish tarkibiga qayta ishlash jarayonidan o‘tgan xom-ashyo, material va yarim tayyor mahsulotlar o‘zi tayyor holga keltirilgan, ammo texnika nazorati bo‘limi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlar kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$Q_{tug} = Q_s \times T_d \times TN_r \times K_{mah}$$

bu yerda:

Q_{tug} - tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, so‘m;

Q_s - o‘rtacha 1 sutkada mahsulot ishlab chiqarish xajmi, o‘lchov birliklarida;

T_d - ishlab chiqarish davri (tsikli) muddati, kun;

TN_r - rejadagi mahsulot tannarxi, so‘m/birl.;

K_{mah} - mahsulot bo‘yicha xarajatlar o‘rishining o‘rtacha koeffitsienti (0,5 - 0,75 atrofida).

Tayyor mahsulot – korxonada ishlab chiqarishi tugatilgan, belgilangan standartlarga yoki texnik shartlarga to‘g‘ri keladigan mahsulot.

Tayyor mahsulot texnik nazoratchi tomonidan qabul qilinib, belgilangan hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va omborga topshiriladi. Ayrim hollarda uskunalarni, ma`lum bir mahsulot turini ishlab chiqarishga tayyorlash uchun lozim bo‘ladigan vaqt talab darajasining dambadam o‘sib va pasayib turish holati.

Tovar — birinchidan, ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyatning moddiy buyum shaklidagi har qanday mahsulot; ikkinchidan, sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari ob‘yekti.

Tovar bozorda sotish, ayirboshlash uchun va shu orqali boshqalarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan mehnat mahsulotidir. Tovar faqat moddiy shaklga ega bo‘lmay, u turli xizmatlar, ma’naviy ne’matlar va boshqa ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkin. Tovar shaklini olgan mahsulot ikki yoqlama xususiyatga ega bo‘lishi, ya’ni;

- bir tomondan, u faqat sotish uchun ishlab chiqarilgan,

- ikkinchidan, kishilarning biror bir ehtiyojini qondira olishi kerak.

Iqtisodiyotda Tovarining bu ikki yoqlama xususiyati — iste’mol qiymati, uning mehnat mahsuli ekanligi qiymat tarzida o‘rganiladi.

Tovarlarning iste’mol qiymati ularning boshqa tovarlar bilan almashtirish imkonini beradi. Shuning uchun tovar ishlab chiqaruvchilarni tovarning almashuv qiymati qiziqtiradi. Tovarlarni sotishdagi ularning narx ko‘rsatkichi almashuv qiymatini ko‘rsatadi. Tovarlarning almashuv qiymati — biror turdagi iste’mol qiymatning boshqa turdagi iste’mol qiymatga ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatdir.

Kelgusi davr xarajatlari – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi:

- boshqaruv xarajatlari,

- mahsulotni sotish xarajatlari,

- umumxo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Kechiktirilgan xarajatlar – hisobot davrida amalga oshirilgan, lekin kelajakdagi hisobot davri bilan bog‘liq xarajatlar.

Bunga, kon ishlariga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq ishlar, ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq mavsumiy ishlar va shu kabi ishlarni misol qilish mumkin boladi.

Xulosa

Biz jamiyatda Tadbirkorlik to'g'risidagi bilimni o'rganishda bevisita duch keladigan iboralar va ularning mazmun-mohiyatiga duch kelamiz. Maqola bilan tanishib chiqqan o'quvchi bevosita bunday muammolarni mustaqil tushunib yetadi va tushunchaga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-404 13.04.2016-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-son Harajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomi 05.02.1999-y.
3. Radjabova, Gavxar. "TA'LIM XIZMATLARI BOZORI VA UNING TARTIBGA SOLINISHI." Talqin va tadqiqotlar 1.1 (2023).
4. Umarovna, Radjabova Gavhar. "FEATURES OF THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES AND THE PROBLEM OF INTERACTION OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS WITH EMPLOYERS." E Conference Zone. 2022.
5. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF THE UNIVERSITY MANAGEMENT SYSTEM." International Journal of Early Childhood Special Education 14.8 (2022).
6. Umarovna, Radjabova Gavkhar. "INCREASING THE COMPETITIVENESS OF UNIVERSITIES IN THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES." Open Access Repository 9.11 (2022): 269-273.
7. Umarovna, Rajabova Gavkhar. "IMPROVING THE PERFORMANCE MANAGEMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." Open Access Repository 8.11 (2022): 81-86.
8. Umarovna, Radjabova Gavkhar. "LABOR MARKET AND EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.07 (2022): 21-28.
9. Radjabova, Gavkhar Umarovna. "The oretical, practical and demographic aspects of labor market development in Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 1070-1075.
10. Radjabova, Gavkhar Umarovna, and Ramzxon Rashidovich Jalilov. "The System of Quality Control of Education in Domestic Schools." The Peerian Journal 5 (2022): 87-91.